

**“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati Yagona aksiyadorining**  
**1 -sonli qarori**

**2026-yil “11” mart**

**Toshkent shahri**

“O‘zenergosotish” AJ tomonidan chiqarilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi oddiy aksiyalar 176 592 donani tashkil etadi.

“O‘zenergosotish” AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalari O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bo‘lib, ushbu vazirlik Jamiyatning Yagona aksiyadori hisoblanadi.

Ushbu qaror “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga asosan quyidagi masalalar yuzasidan qabul qilindi:

**1. “O‘zenergosotish” AJ Boshqaruv a‘zolarini tayinlash.**

***Kun tartibidagi masala yuzasidan:***

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Hukumatning bir qator qarorlari bilan “O‘zenergosotish” AJga qo‘shimcha vazifa va funksiyalarning o‘tkazilishi Jamiyat Ijroiya organi zimmasiga yuklamalar ortishi bilan bir qatorda Jamiyatning kundalik faoliyatida qarorlar qabul qilishda yuqori darajada mas‘uliyatni va kolegiellikni talab etmoqda. Shu sababli “O‘zenergosotish” AJ Yagona aksiyadorining 2025-yil 17-dekabrda 8-sonli qarori bilan Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavi va “Ijroiya organi to‘g‘risida”gi nizomi tasdiqlangan.

Shu bilan birga, “O‘zenergosotish” AJning amaldagi Ustaviga hamda “Ijroiya organi to‘g‘risida”gi nizomiga ko‘ra Jamiyat ijro organi (Boshqaruv) tarkibi 5 kishidan (Boshqaruv raisi, uning ikki o‘rinbosari, Jamiyatning Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi boshlig‘i hamda Yuridik bo‘limi boshlig‘i) iboratligi belgilangan.

Bugungi kunda Jamiyatning Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi boshlig‘i lavozimida Radjabov Bobir Botirovich va Yuridik bo‘limi boshlig‘i lavozimida Ruzimov Abduqodir Baxtiyor o‘g‘li faoliyat yuritib kelmoqdalar.

O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasiga muvofiq jamiyatning ijroiya organini tuzish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib hamda “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq kun tartibidagi masala yuzasidan “O‘zenergosotish” AJning Yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. “O‘zenergosotish” AJ Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi boshlig‘i Radjabov Bobir Botirovich va Yuridik bo‘limi boshlig‘i Ruzimov Abduqodir Baxtiyor o‘g‘li “O‘zenergosotish” AJ Boshqaruvi a‘zolicigiga uch yillik muddatga tayinlansin.

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Iqtisodiyot va moliya vaziri**  
**o‘rinbosari**

 **X. Mustafayev**